



UO'T: 631.458:631.587.

MURAKKAB EKOLOGIK MUHITDA SUG'ORILADIGAN QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINING MIQDORIY HISOBI

Tairova Ayjamal Userovna 

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
tayanch doktoranti

e-mail: tayrovaayjamal2014@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada monografik tadqiqot va qiyosiy tahlil usullaridan foydalangan holda murakkab ekologik muhitdagi qishloq xo'jaligi yerlarining miqdoriy hisobini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan hamda tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sug'orish, yer uchastkasi, miqdor, hisob, qishloq xo'jaligi, tahlil, yer tuzish, chizma, tuman.

Аннотация. В статье раскрыты особенности количественного учета сельскохозяйственных угодий в сложной экологической среде с использованием методов монографического исследования и сравнительного анализа, а также разработаны соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: орошение, земельный участок, количество, учет, сельское хозяйство, анализ, землеустройство, чертеж, район.

Abstract. The article reveals the specific features of maintaining quantitative accounting of agricultural lands in a complex ecological environment using monographic research and comparative analysis methods, and develops relevant recommendations.

Keywords: irrigation, land plot, quantity, accounting, agriculture, analysis, land management, drawing, district.

KIRISH

Muhim milliy boylik hisoblangan yer-qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy vositasi, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning makoniy bazisi hisoblanadi. Yer shunday bir o'ziga xos xususiyatga egaki, undan to'g'ri va oqilona foydalanilsa, u boshqa ishlab chiqarish vositalariga o'xshab eskirmaydi, aksincha mahsuldorligi doimo oshib boradi [1]. Shunday ekan, uning miqdoriy hisobini, ayniqsa qishloq xo'jaligidagi sug'oriladigan yerlarning miqdoriy hisobini doimiy yuritib borish, bunday yerlar kimga tegishliligi, ulardan qay tarzda foydalanilayotganligi to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish juda muhimdir. Murakkab ekologik muhitga ega bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasining



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

shimoliy va markaziy hududlarida bunday ishlarning ahamiyati yanada yorqin namoyon bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorlarini doimiy oshirib borish, maydon birligiga nisbatan kamroq xarajat sarf qilish asosida mahsulotlar yetishtirish hajmlarini oshirish, iqtisodiy jihatdan natijador, yuqori foyda keltiradigan ilmiy asoslangan, dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirishda ekin maydonlarining eng maqbul tizimi belgilanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish mumkin bo'ladigan barcha yerlar qishloq xo'jaligiga jalb qilinishi zarur. Ammo har bir yer uchastkasi yer maydonining miqdori va sifati, joylashgan o'rnining holati to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lmasdan turib bu yerga zaruriy agrotexnik va meliorativ tadbirlarni belgilab bo'lmaydi [2,3]. Bu qoida ayniqsa murakkab ekologik muhit sharoitida yanada dolzarblashadi, negaki sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlari hududlarida ekologik sharoitning murakkablashishi bunday maydonlar miqdoriy hisobni yuritishga alohida e'tibor berishni talab qiladi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Olib borilgan nazariy tadqiqotlar natijalari shundan guvohlik beradiki, murakkab ekologik muhitli hududlarining tabiiy va iqtisodiy sharoitlari xilma xilligini hisobga olib sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining miqdoriy hisobiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- asosiy yer turlari maydonlari miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarning aniq va haqqoniy bo'lishi;
- yer uchastkasi hududini joyga to'liq mos kelishi;
- yer uchastkasi hududining ekologik muhitini bir muncha yaxshilashga oid aniq chora tadbirni amalga oshirish imkoniyatlarining mavjudligi;
- yerlarning miqdoriy hisobini yuritishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ta'sirini kamaytirish.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Qishloq xo'jalik yerlarini davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib berilishida xo'jalik yerlarining miqdori, sifati, yer turlari va ulardan foydalanish darajasi, turli salbiy jarayonlar natijasida qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqib ketgan yerlarni qaytarish va o'zlashtiriladigan yangi yer maydonlarining hisob kitoblari aynan yer hisobiga asoslanadi.

Shuni qayd qilish zarurki, yerlarning miqdoriy hisobi davlat yer kadastrining tarkibiy qismi bo'lgani holda xo'jalik hisobining bir turi hisoblanadi. Uni, ayniqsa ekologik murakkab muhitda joylashgan va ushbu hududda o'z faoliyatini olib borayotgan qishloq xo'jalik korxonalarini, qishloq tumanlari yerlarida yuritishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar yer maydonlarini qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi hamda ekologik muhitning tarkibi sifatidagi xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu holat aynan tadqiqotga jalb qilingan Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoliy va markaziy tumanlarida





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli ham bunday hududlarda yer hisobini yuritishda yer uchastkasini qishloq xo'jaligining muhim asosi hamda murakkab ekologik muhitning birlamchi tarkibi kabi xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. Umuman keyingi yillarda qishloq xo'jaligi yerlari, ayniqsa sug'oriladigan yerlarga bo'lgan talabning oshib borayotganligi, miqdoriy hisob natijalari aniqligining ko'tarilib borayotganligi hamda bunday ishlarni bajarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'lamining kengayayotganligi yerlarning miqdoriy hisobi anchagina to'g'ri va maqsadga muvofiq yuritilishiga zamin bo'lmoqda. Buni keyingi 10 yil ichida Qoraqalpog'iston Respublikasining sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining asosiy yer turlari bo'yicha olib borilgan yer hisobi ma'lumotlari yaqqol ko'rsatiladi (1-jadval).

1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi yerlari tarkibidagi asosiy yer turlari maydonlarining o'zgarish dinamikasi

№	Asosiy yer turlari	2018 yil*		2022 yil**		2025 yil**		2025 yilning 2018 yilga nisbati, +, -	
		Jami	Shundan sug'oriladigan	Jami	Shundan sug'oriladigan	Jami	Shundan sug'oriladigan	Jami	Shundan sug'oriladigan
1	Ekin yerlar	415,4	415,4	414,9	414,9	414,7	414,7	-0,7	-0,7
2	Ko'p yillik daraxtzorlar	8,6	8,6	7,8	7,8	7,8	7,8	-0,8	-0,8
3	Bo'z yerlar	9,4	9,4	12,5	12,5	12,5	12,5	+3,1	+3,1
4	Yaylov va pichanzorlar	1652,0	36,4	4472,9	33,7	4303,2	33,7	+2651,2	-2,7
5	Qishloq xo'jalik yer turlari, jami:	2085,4	469,8	4908,1	468,9	4738,2	468,7	+2652,8	-1,1
6	Tomorqa yerlari	35,4	29,3	40,5	33,5	40,6	33,5	+5,2	+4,2
7	Meliorativ tayyorgarlikdagi yerlar	28,7	-	24,1	-	24,9	-	-3,8	-
8	O'rmonzorlar	98,2	0,2	53,6	0,6	53,7	0,6	-40,9	+0,4
9	Butazorlar	25,2	-	42,7	-	42,7	-	+17,5	-
10	Boshqa yerlar	949,2	-	1338,1	-	1337,1	-	+338,2	
	Jami	3222,1	499,3	6407,1	503,0	6237,2	502,8	+3015,1	+3,1

* "O'z davre geodez kadastr" davlat qo'mitasi ma'lumotlari

** Kadastr agentligi ma'lumotlari

1-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, haqiqatan ham keyingi 7-8 yil davomida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydonlarida, shuningdek asosiy qishloq xo'jalik yer turlari maydonlarida bir muncha o'zgarishlar yuz bergan. Jumladan, respublikada zahira yerlarning katta qismini qishloq xo'jaligi yerlariga o'tkazilishi natijasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar maydoni 2025 yilga kelib 2018 yilga nisbatan 3015,1 ming gektarga, qariyb 2,0 barovarga oshgan. Bu maydonlarning aksariyat qismi yaylovlar va pichanzorlarni tashkil etgan, negaki aynan ushbu yer turlarining maydonlari 2025 yilga kelib 2018 yilga nisbatan 2651,2 ming gektarga yoki 160,5% ga ko'paygan. Ekin yerlari maydonlariga aniqliklar kiritilishi natijasida hamda bunday yerlarni boshqa noqishloq xo'jaligi





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

maqsadlari uchun (asosan tomorqa, sanoat, transport maqsadlari uchun) ajratilganligi sababli, ularning maydonlari 0,8 ming gektarga, xuddi shunday ko'p yillik daraxtzorlar maydonlari 0,7 ming gektarga kamaygan. Aksincha, ba'zi ob'yektiv va sub'yektiv sabablar oqibatida sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlari bir qismini qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqib ketganligi sababli, bo'z yerlar maydonlari 3,1 ming gektarga ko'paygan.

Respublika aholisi sonining, xususan qishloq aholisi sonining ko'payib ketayotganligi ularning yer maydonlariga, ayniqsa tomorqa yerlariga bo'lgan talabini oshirgan.

Natijada, respublika bo'yicha keyingi 7-8 yil ichida tomorqa yerlarining maydoni 5,2 ming gektarga ko'paygan. Albatta, zahira yerlar hisobiga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar maydonining ko'payganligi, o'z navbatida, butazorlar va boshqa yerlar maydonlarining ham bir muncha oshishiga zamin yaratgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 4-martdagi 111-son «Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi tumanlarning 2025-2030 yillarga mo'ljallangan yer tuzish chizmalarini ishlab chiqish to'g'risida» gi qaroriga binoan 2025 yildan boshlab, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham mavjud qishloq xo'jaligi tumanlarining yer tuzish chizmalarini ishlab chiqishga kirishilgan va ushbu yilda 2 tumanning shunday yer tuzish-prognozlash hujjati ishlab chiqildi. Yer tuzish chizmasi yerdan foydalanish samaradorligini oshirish va ularni muhofaza qilish, yer munosabatlarini tartibga solish, tabiiy muhitni asrash, yaxshilash, hududni kompleks rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida ishlab chiqiladi [1]. Demak, ushbu prognozlash hujjatini har tomonlama asoslangan holda ishlab chiqish ham birinchi galda tuman yer maydonlarining aniq ma'lumotlariga asoslanadi. Darhaqiqat tuman yer tuzish chizmasini ishlab chiqishga kirishishdan oldin, bu ishga tayyorgarlik davrida, birinchi navbatda, tumandagi yerlar yoppasiga inventarizatsiya (xatlov) dan o'tkaziladi. Bu ish tumandagi barcha korxonalar, muassasa va tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan foydalanilayotgan yerlarning haqiqiy maydonlarini olishga imkon beradi. Murakkab ekologik muhitga ega bo'lgan tumanlarda yerlarning miqdoriy hisobi yuritilishi bo'yicha bunday ishni o'tkazish yer turlari bo'yicha aniq miqdoriy ma'lumot olish bilan bir qatorda istiqbolda hududdagi ekologik, murakkablikni yumshatish uchun qanday aniq tadbirlarni belgilash va tavsiyalar ishlab chiqish mumkinligiga xulosa qilishga imkon beradi.

XULOSA

Shunday qilib, yuqoridagilar asosida qisqacha xulosa qilish mumkinki, murakkab ekologik muhitda ham sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlaridan foydalanishni tashkil etishda, shuningdek istiqbolga prognozlash hujjatini ishlab chiqishda bunday yerlarning miqdoriy hisobini yuritish materiallaridan foydalanish ushbu maydonlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini belgilaydi, shuningdek murakkab ekologik muhitni birmuncha yumshatishga imkon beradigan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 4-martdagi 111-son «Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi tumanlarning 2025-2030 yillarga mo'ljallangan yer tuzish chizmalarini ishlab chiqish to'g'risida»gi qarori. Toshkent, 2024, Lex.uz
2. Babajanov A.R. Yer kadastr nazariyasi. Darslik. Toshkent, TIQXMMI MTU, 2023. 478 b.
3. Babajanov A.R. Qishloq xo'jalik yerlari kadastr. O'quv qo'llanma. Toshkent, TIQXMMI MTU, 2024. 178 b.